TIL PORTFELLARI ORQALI INTEGRATIV TASHKIL ETISH METODIKASIDAN FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI

Sanoyeva Gulbar Rizoqulovna, Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti "Fakultetlararo chet tillari "kafedrasi dotsenti
e-mail: gulbarsanoyeva@gmail.com

Annotatsiya. Pedagogik kommunikativ ta'lim jarayonida talabalarning o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini o'zi boshqarish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Til portfellari kognitiv faoliyat natijalarini aks ettirish va baholash uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishga samarali yordam beradi. Portfel eng zamonaviy va istiqbolli innovatsion vositalardan biridir, talabalarning badiiy matnlar asosida til o'zlashtirishdagi yutuqlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Kalit so'zlar: integrativ metodika, til portfeli, zamonaviy texnologiyalar, chet tillari, innovatsiyalar;

УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ИНТЕГРАТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЧЕРЕЗ ЯЗЫКОВЫЕ ПОРТФОЛИО

Аннотация. В процессе педагогичиский коммуникативного обучения особое значение приобретают самооценка и самоконтроль учащихся. Языковое портфолио эффективно способствует формированию необходимых навыков рефлексии и оценки результатов познавательной деятельности. Портфолио является одним из самых современных и перспективных инновационных инструментов и используется как средство отражения достижений учащихся в овладении языком на основе художественных текстов.

Ключевые слова: интегративная методика, языковое портфолио, современные технологии, иностранные языки, инновации;

CONDITIONS FOR USING THE METHODOLOGY OF INTEGRATIVE ORGANIZATION THROUGH LANGUAGE PORTFOLIOS

Abstract. In the process pedagogical of communicative learning, self-esteem and self-control of students are of particular importance. The language portfolio effectively contributes to the formation of the necessary skills of reflection and evaluation of the results of cognitive activity. The portfolio is one of the most modern and promising innovative tools and is used as a means of reflecting students' achievements in language acquisition based on literary texts.

Key words: integrative methodology, language portfolio, modern technology, foreign languages, innovations;

Kirish. Bugungi kunda chet tilini o'rganish turli texnologiyalardan faol foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan didaktik tizim zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ulkan spektrini o'z ichiga oladi, ayniqsa talabaning til portfellari orqali ta'lim jarayoniga

tatbiq qilish uchun ta’lim tarbiya jarayonida talaba mustaqil fikrlashning qator shart sharoitlar inobatga olinishi zarur. Ma’lumki, “Til portfellari”- talabaning o‘quv-biluv faoliyatinng integrativ tashkil etish metodikasidan iborat.

Til portfellari orqaqli har bir talaba kamolotida fikr tiniqligi, yaxlitligi, keng qamrovliligi, dolzarbligi, o‘zgalar tomonidan tinglanishi, o‘ziga xos fikrlay olishi bilan belgilanadi. Fikr – bu atrof-muhitga, voqelikdagi hodisalarga, jarayonlarga, narsa va shaxslarga nisbatan bildiriladi. [1]

Talabalar har qanday ma’lumotning asoslanilishini, tahlil etilishini, ularga o‘z munosabatini bildirishni istaydi. Bunday talabalarni qanoatlantiradigan ta’lim mazmuni birmuncha murakkabdir. Ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uning o‘z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, o‘z intellektual imkoniyati darajasida turli yo‘l, usul, vositalar yordamida, mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir.

Talabaning kommunikativ qobiliyati voqea-hodisalarga nisbatan, umumiy jarayonning o‘ziga xos mahsulasi hisoblanadi. Bu natijaning jamiyatga ta’siri ham o‘ziga xosdir. Til portfeli orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilar ekanmiz, tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har bir talaba o‘zicha fikrlaydi. Mustaqil fikrlash bilan talabalarda nafaqat bilimlarning mustahkamlanishiga, tajribaning orttirilishiga, balki ma’naviy yetuklikka ham erishiladi. Axloqiy jihatdan har qanday muhitni zabt etishga qodir bo‘lgan talaba o‘zgalarni hurmat qilish, ularning qadr-qimmatini ko‘rsatib bera olish, o‘z faoliyati jarayonida barcha ishtirokchilarning manfaatlarini yaxlit himoya qila olish uchun jur’at topadi.

Tadqiqot metadologiyasi. N. Muslimovning tadqiqotida dars jarayonida o‘qituvchi faoliyati ustuvorlik qilib mavzularga bir tomonlama yondashmaslik; ikkinchidan, o‘quv dasturida, darslikda va qo‘shimcha materiallarda berilgan ma’lumotlar mukammal va tugal, zotan ularni faqat o‘zlashtirish kerak degan qarashga og‘ishmay amal qilish lozimligi haqida fikr bildiriladi. [2]

Til portfeli orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilishda ta’lim-tarbiya jarayoni talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish maydonchasiga aylanadi, har bir talabaning oddiy fikri ham vaqti kelib buyuk kashfiyotlarga asos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Zero, o‘quv tarbiya jarayonidagi uzviylik, uzluksizlikka asoslangan mazmunni idrok etish, anglash va o‘ziniki qilib qabul qilishda o‘quv materiallariga ham ma’lum darajada talabani mustaqil ishlashga yo‘naltirishni singdirish bugungi kun pedagogikasining asosiy muammolaridan biridir.

Talabaning mustaqil fikrlash kompetensiyasini til portfellari orqali rivojlantirish har bir mashg‘ulotning asosiy muammosi bo‘lib qolmog‘i lozimki, bunda ta’lim sifatini oshirish, uning mazmunini boyitish mezoni yaratiladi.

Til portfelining afzalliklari:

• asosiy e’tiborni o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalaridagi kamchiliklarni o‘zgartirishga qaratish;

• o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish;:

• tashqi baholashga nisbatan o‘z-o‘zini hurmat qilishning ustunligi;

• mustaqil o‘quv va kognitiv faoliyat uchun sharoit yaratish;

• dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi adekvat baholash qobiliyatini shakllantirish;

• o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tuzatish asosida o‘quv jarayonida yuqori akademik motivatsiyani saqlash

• o‘quvchilar mustaqilligini rag‘batlantirish, o‘rganish va mustaqil ta’limni kengaytirish imkoniyatlari;

• o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish. [4]

Kommunikativ ta’lim jarayoniga talabaninig o‘z- o‘zini hurmat qilish va o‘z - o‘zini boshqarish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Til portfeli kognitiv faoliyat natijalarini aks ettirish va baholash uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga samarali yordam beradi. Portfel eng zamonaviy va istiqbolli innovatsion vositalardan biri bo‘lib, talabaning badiiy matnlar asosida til o‘zlashtirishdagi yutuqlarini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Shuningdek, til portfeli orqali ta’lim jarayonida tatbiq qilishda ingliz tilidagi o‘quv mashg‘ulotlari imkoniyatlari keng hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar o‘z fikrlarini bayon qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishiga ehtiyoj yuzaga keladi.

Til portfeli orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida talaba mustaqil fikrlashining qator shart-sharoitlar inobatga olinishi zarur:

1. Talabaning mavjud holati negizida hosil qilingan tasavvur. Bunda talaba unga bo‘layotgan ta’sirlar asosida, mavjud ma’lumotlarga tayangan holda har qanday jihatning hozirgi holati orqali ham o‘tmish va ham kelajak holatini aniq ko‘z oldiga keltiradi.

2. Jarayonga bo‘lgan kuzatuvchanligi uning keyingi hatti-harakatlari uchun yana bir asosdir. U o‘z oldiga aniq va muayyan maqsad qo‘yishga ko‘z oldidagi har qanday yaxlit predmetni qismlarga ajratish yoki bo‘lmasa obyektlarni taqqoslashni o‘rganadi. Bu uning faoliyatida o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi. Shu bois talabaning kommunikativligida uning kuzatuvchanligi bilan mushohada etishi rivojlanib boradi.

3. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish yana bir pedagogik-psixologik asosi bu tushunishdir. Tushunish orqali talaba atrof-muhitdagi, jamiyatdagi, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, aloqani tushunib yetadi. Shunchaki fikrlashdan chekinib, atroflicha ichki, tashqi bog‘lanishlarni, sabab-oqibat, munosabatlarini aniqlashtirib olishga imkoniyat qidiradi.

4. Xulosa chiqarish shunday jarayonki, bunda talabaning mustaqil fikrlashi yuzasidan ma’lum bir to‘xtamga kelinadi. Xususan, talaba o‘zidagi ma’lumotni anglashi, tushunishi natijasida xulosa chiqarishga harakat qiladi. Har qanday xulosa asoslashni taqozo etadi. Zotan xulosa chiqarish uchun talaba pedagogik-psixologik asos sifatida talqin etiladi.

5. O‘quv-materiallari va mustaqil fikrlash uchun zarur bo‘lgan materiallarni xotirada saqlash jarayoni. Har qanday sharoitda mustaqil fikrlashning bu jihati bilan taqqoslash, tahlil etishga zamin yaraladi. Bu o‘z navbatida talabaning psixologik ta’sirlanishi uchun zaruriy imkoniyatdir.

6. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirishning yana bir jihati bu talabani qiziqtira olishdir. Talaba qiziqishi asosida mustaqil fikrlashga harakat qiladi, izlanadi va nimagadir erishish uchun intiladi. [5]

Tahlil va natijalar. Qayd etish kerakki, o‘quv-tarbiya jarayonida bo‘lgan turlicha yondoshuvlar mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etiladi va bu holatda turli xil usullarda qo‘yilgan maqsadga erishish muhim sanaladi.

Til portfellari orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilishda talabalarning o‘quv biluv faoliyatlari quyidagicha tarkibiy tuzilishda kechadi:

a) kuzatish;
b) izlanish;
d) alohidaliklarni sharhlash;
e) qiyoslash;
f) umumiylikni sharhlash;
g) farqlarni sharhlash;
h) tasnif etish;
i) hukm chiqarish;
j) aloqadorlikni aniqlash;

k) qo‘llash.

Til portfeli orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilishda, avvalo, talabalarning matn ustida ishlashi jarayonida umumiy taraqqiyoti hisobga olinadi. Bunda:

a) talabalarning tevarak-atrofdagi predmet hodisalar va ularning xilma-xilligi to‘g‘risidagi tasavvuri;

b) mana shu predmet-hodisalar orasidagi sabab, shart, qarama-qarshilik munosabatlarini to‘g‘ri farqlay olish qobiliyati;

v) o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalay olish va o‘z bilganlarini boshqalarga yetkaza olish malakalari. [6]

Til portfelini sinovdan o‘tkazish natijalari shuni ko‘rsatadiki, uning o‘quv vositasi sifatida alohida pedagogik ahamiyati shundaki, u chet tilini o‘zlashtirish bo‘yicha mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan. Bunday holda, til o‘rganish va uning samarali o‘quv faoliyatini rivojlantirish sohasida talabaning o‘quv kompetensiyasini shakllantirish uchun maqbul sharoitlar yaratiladi. Shu sababli, chet tilini o‘rganishda samarali mustaqil ishlash uchun zarur bo‘lgan tegishli o‘quv strategiyalari va ko‘nikmalari shakllantiriladi. Ma’lum darajada, bu talabaning shaxsiy o‘quv vositalarini tuzish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu o‘quv vositasi, chet tilidagi nutq aloqasini rag‘batlantiradigan ish turlaridan farqli o‘laroq, rivojlanish holatini yaratadi va “men buni qila olaman”, “men buni uddalayman”,“bu mening maqsadim” kabi shaxsiy javobgarlikni ta’minlaydi. Talabalarning badiiy matnlar asosida til o‘zlashtirishlariga yo‘naltirilgan “Til portfellari” integrativ texnologiyasi: har bir mavzu bo‘yicha ish tugagandan so‘ng muntazam ravishda taqdimot tayyorlash, ingliz tilidagi so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz etish va boshqalarga imkoniyat berdi. Talabalar badiiy matn asosida tinglab-tushunish, badiiy matndagi monolog qismini o‘zlashtirish, so‘z boyligi va grammatikasiga asoslangan matnlar materiallari asosida taqdimot tayyorlash, o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan, topshiriqlarni bajarishga o‘rgandilar. Portfellari orqali ta’lim jarayoniga tatbiq qilishdagi metodlarni quyidagicha tavsiflash mumkin. Metod – nazariy, amaliy, biluv, boshqaruv, maishiy tavsifdagi vazifalarni yechishning ma’lum yo‘li.

Fikrlash murakkab jarayon. Shu bois qidirilayotgan axborot, ma’lumot, internet tarmog‘ida mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan matnni talabaning yoshi, fikrlash doirasiga mos bo‘lishiga e’tibor berish zarur. Bu - shunday faol jarayonki, odam o‘qigan, mushohada qilayotgan manbasiga ma’lum ma’noda o‘z munosabatini bildira olishi kerak.

Xulosa. Shunday qilib, til portfellari orqali talabalarning fikrlash vositasi sifatida ham qaralishi mumkin. Bunda o‘rganilayotgan obyekt mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo‘lishi, pedagogik voqea va hodisalar aloqadorlikda va keng qamrovda izlanishi, voqea, narsani u bilan aloqador makon va zamondan ayirmaslik, aks holda borliqni voqealikni idrok etish va unga xos hukm chiqarish; o‘rganilayotgan masalaga his-hayajon qo‘zg‘ovchi sharoit yaratish. Mustaqil fikrlash tafakkur jarayoniga xos yuqoridagidek qoidalarga asoslansa-da, lekin u har bir talabada o‘zgacha aloqadorlik zaminida rivojlanadi. Chunonchi, mustaqil fikrlash tezligi bilan talabaning haqiqatni anglash, ifodalash fazilatlarining o‘zaro bog‘liqligini me’yorlab bo‘lmaydi.

Didaktik ma’lumotlar mazmunining uzviylik tamoyili quyidagi pedagogik shart-sharoitlarda kechadi ва talabalarda mustaqil fikrlashga bo‘lgan maylning barqaror bo‘lishiga xizmat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. – Toshkent, 2020.

2. Muslimov N. A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik. Mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini ta’minlashning integrative texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari . – Toshkent:TDPU, 2018 . – B.114-118.

3. Aripova M., Nosirova Sh. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. 2019.

4. Галскова Н. Д., Никитенко З. Н. Европа тил портфели. – Москва: “Еврошкола”, 1998. – С. 89.

5. Иванова Н. В. Языковой портфель как инструмент самооценки и саморазвития студента – Москва: «Совет учителей», 2003. – С. 140

6. Labazina L. N. Evropa til portfeli-talabalarning chet tillari bo‘yicha bilimlarini baholash va o‘z-o‘zini baholash vositasi. Yaroslavl pedagogik byulleteni. №2 (35). 2003 – B. 14.

8. Mo‘minova M. A. Talabalarning ingliz tilidagi o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishlarida integrativ yondashuvdan foydalanish “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 15-sonli respublika ilmiy konferensiyasi/ ISSN 2181-3035, – B. 39-44.